

# MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHNING MAQSADI VA VAZIFALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11397430>

*Abdullayeva Madinabonu Xasanboyevna*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi*

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy tezisda aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy risklarni boshqarishning maqsadi, zarurati va ahamiyati yoritilgan. Moliyaviy risklarni boshqarishning xalqaro standartlariga muvofiq vazifalar algoritmi va uslubiy yondashuvlarning ilmiy jihatlari bayon etilgan. Aksiyadorik jamiyatlarida moliyaviy risklarni boshqarish mexanizmini takomillashtirishga doir ilmiy xulosalar keltirilgan.

**Tayanch so‘zlar:** moliyaviy risk, baholash, innovatsiya, moliyaviy menejment, investitsiya, prognoz, qiymat, loyiha, moliyaviy barqarorlik, daromad, risk-menejmenti.

Korporativ tuzilmalar faoliyatida moliyaviy risklarni paydo bo‘lishi tabiiy voqelik hisoblananib, moliyaviy menejerlar tomonidan boshqaruva qarorlarini qabul qilishda alohida e’tibor qaratilishi va boshqarilishi lozim bo‘lgan ob’ekt sifatida namoyon bo‘ladi. Umumiy ko‘rinishda korporativ tuzilmalar faoliyatiga xos bo‘lgan o‘zaro uzviy bog‘liq ikki turdagи ya’ni operatsion va moliyaviy risklarni ajratish mumkin. Ularning har biri boshqaruva nuqtai nazaridan alohida yondashuvlarni talab qilish bilan birga ularning vazifalar ketma-ketligi ham farqlanadi. Moliyaviy risklarni boshqarishning samarali tizimini shakllantirishda, uning maqsad va vazifalarini aniqlab olish va ularning kompaniya moliyaviy strategiyasiga muvofiqligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Korporativ tuzilmalarla risk-menejmenti tizimining bosh maqsadi – risk va noaniqlik sharoitida kompanianing muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta’minlashdan iborat.

Fikrimizcha, kompaniyalarda riskli vaziyat vujudga kelganida riskni boshqarish bo'yicha choralar kompaniyaga moliyaviy operatsiyalarni davom ettirishni, tegishli tartibda pul oqimlarini barqaror va bir maromda kelishi, foyda olish va uni o'sishi shuningdek boshqa maqsadlarga erishishni ta'minlashi lozim. Risk menejmentining bosh maqsadi bilan bir qatorda korporativ tuzilmalarning faoliyat yo'naliishlari va tarmoqlar hususiyatlari bo'yicha quyidagi qo'shimcha maqsadlari ham mavjud:


moliyaviy operatsiyalarning samaradorligini ta'minlash. Mazkur maqsad minimal ehtimolliklarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan, ko'p miqdordagi zararlarni asoslangan himoyalanishini ta'minlash uchun riskni boshqarish bo'yicha choralarни joriy etish maqsadida xarajatlarni optimallashtirishni nazarda tutadi;

moliyaviy faoliyat natijalari bo'yicha zarar bilan yakunlangan taqdirda, noaniqlikning optimal darajasini aniqlash. Ushbu maqsad agar riskdan qochishning imkoniyati bo'lmasa, unda uni optimal darajagacha moliyaviy risklarning ta'sirini minimallashtirish kerak, degan ma'noni anglatadi.

faoliyat jarayonlari va harakatlarning qonuniy asosga ekaligi. Ushbu maqsad tadbirlarni joriy etish riskni boshqarish tizimining asosiy maqsadlariga qaramaqarshi bo'lmasligi zarurligini anglatadi.

boshqa maqsadlar. Bunday maqsadlarning mazmuni kompaniyaning faoliyati va moliyaviy riskni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlardan kelib chiqadi.

Yuqoridagi asosida xulosa qilish mumkinki, risk-menejmenti tizimining maqsadlar ierarxiyasi riskli vaziyatning alohida jihatlari va riskni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlardan kelib chiqqan holda shakllanadi. Bunga asosan esa moliyaviy risklarni boshqarishning alohida vazifalar ketma ketligi shakllantiriladi hamda belgilangan vazifalar kompaniya moliyaviy faoliyatiga risklar darajasi ta'sirini aniqlashdan iborat (1-rasm).



## 1-rasm. Risk-menejment tizimining asosiy vazifalari va boshqaruv usullarining o'zaro bog'liqligi

Mazkur holatlar qaror qabul qilish uchun axborot bazasini ta'minlab berish bilan birga moliyaviy risklarni baholashda foydalaniladigan uslubiy yondashuvlar, qoida va tartiblarini belgilaydi. Shuningdek moliyaviy faoliyat bilan bog'liq ehtimoliy zararlarning miqdorini aniqlashga yordam beradi. Korporativ tuzilmalarda riskli vaziyatlarning salbiy natijalarini kamaytirish va bartaraf etish hamda ushbu choralarni samarali joriy etishga mo'ljallangan mezonlarni qamrab oluvchi moliyaviy riskni boshqarish dasturini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish risk-menejmentining asosiy vazifalar guruhini tashkil etadi. Shunga muvofiq risk-menejmentining maqsadlar tizimini ishlab chiqishda quyidagi shartlarni bajarish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

moliyaviy strategiyada belgilangan maqsadlarni amalga oshirish tartabi va ketma-ketligini aniqlab olish, ya'ni ularning ustuvorligidan kelib chiqqan holda taqsimlash, ularning kompaniya moliyaviy faoliyatiga ta'sirini o'rganish;

maqsadga erishish uchun moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojni baholash. Ma’lum bir maqsadni amalga oshirish uchun boshqasiga nisbatan ko‘p miqdorda kapital talab etadi, shuning uchun ushbu vaziyatni hisobga olinishi risklarni boshqarish tizimining imkoniyatlari va uning maqsadlarini anglash uchun juda ham muhim;

maqsadlarning o‘zaro bog‘liqlik va qarama-qarshiliklarini inobatga olish, ya’ni maqsadlar orasidagi ichki aloqaning hisobga olinishi risklarni boshqarish tizimining butun yaxlitligi va natijadorligini oshirishga imkon beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan ko‘plab aksionerlik jamiyatlari, sug‘urta kompaniyalari umuman korporativ tuzilmalarda moliyaviy risklarni boshqarish mexanizmini tashkil etish masalasiga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Bunday maqsadga erishishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: korxonalarda boshqaruvning tashkiliy tuzilishini ishlab chiqish jarayonida moliyaviy risklarni boshqarish bo‘yicha alohida yo‘nalish tashkil qilish; korxonalarda moliyaviy risklarni boshqarish siyosatini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilish; korxonalar moliyaviy faoliyatidan kelib chiqqan holda, alohida operatsiyalari bo‘yicha risklarni baholash tizimini amaliyotga tadbiq etish; aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan emissiya qilinayotgan korporativ qimmatli qog‘ozlarning daromadlilik va risklilik darajasini xalqaro amaliyot tajribalaridan hisoblash mexanizmini takomillashtirish; korxonada risklarni kamaytirishda diversifikatsilash va sug‘ortalash mexanizmini rivojlantirish lozim.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Burxonov A.U., Xamdamov O.N. Moliyaviy menejment. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” - 2020 y. 468 b.
2. Nicolas Blancher, Srobona Mitra, Hanan Morsy, Akira Otani, Tiago Severo, and Laura Valderrama. Systemic Risk Monitoring (SysMo) Toolkit – A User Guide. IMF Working paper, July 2013.

3. Zokirjonov M.R. Korporativ moliyani boshqarishda moliyaviy risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2023 y. 17-b.

4. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, & Inomjon To‘raevich Jumaniyazov. (2024). CONCEPTUAL REFLECTION OF THE CHANGING ROLE OF THE STATE EXPORT POLICY IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. European Scholar Journal, 5(3), 5-8.

5. Sovereign wealth funds of the Republic of Uzbekistan in the post-pandemic period. (2023). Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 1(2), 355-372.

